

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

FILOLOGIYA FANLARI

ALEKSANDR NIL TA'LIMOTINING GUMANISTIK TAMOYILLARI ASOSIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: alisamiyusuf03@list.ru

Tel: 998 95 233-50-00

Annotatsiya. Mazkur tezisdan Aleksandr Sazerlend Nilning gumanistik pedagogik qarashlari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Nil tomonidan Summerhill tajribasida ilgari surilgan shaxs erkinligi, ishonch, o'zini o'zi boshqarish, majburlashdan xoli ta'lim, demokratik ishtirok, hissiy farovonlik va erkinlikning mas'uliyat bilan uyg'unligi kabi tamoyillarning zamonaviy pedagogik ta'lim uchun metodologik imkoniyatlari ochib beriladi. Tezisdan mazkur tamoyillarni oliy ta'lim sharoitiga bevosita ko'chirish emas, balki ularning gumanistik mazmunini bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy-shaxsiy rivojlanish vazifalariga moslashtirish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Nil, Summerhill, gumanistik pedagogika, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, shaxsiy sifatlar, avtonomiya, mas'uliyat, refleksiya, empatiya, demokratik ta'lim, self-determination, pedagogik autentiklik.

DEVELOPING THE PERSONAL QUALITIES OF FUTURE ENGLISH TEACHERS BASED ON THE HUMANISTIC PRINCIPLES OF ALEXANDER NEILL'S EDUCATIONAL PHILOSOPHY

Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li

Independent Researcher, Namangan State University

Annotation. This paper presents a scientific and theoretical analysis of Alexander Sutherland Neill's humanistic pedagogical views, specifically regarding the development of personal qualities in future English teachers. It explores the methodological potential for modern pedagogical education inherent in principles advanced by Neill through the Summerhill experiment—such as personal freedom, trust, self-governance, education free from coercion, democratic participation, emotional well-being, and the harmony of freedom with responsibility. The paper argues that the goal is not to directly transplant these principles into the higher education setting, but rather to adapt their humanistic essence to the professional and personal development needs of future English teachers.

Keywords: Alexander Neill, Summerhill, humanistic pedagogy, future English teacher, personal qualities, autonomy, responsibility, reflection, empathy, democratic education, self-determination, pedagogical authenticity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i17/n07>

KIRISH

Zamonaviy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchini tayyorlash masalasi faqat fan mazmunini egallash, metodik usullarni bilish yoki darsni texnologik jihatdan loyihalash bilan cheklanmaydi. O'qituvchining kasbiy samaradorligi uning shaxsiy pozitsiyasi, o'z xatti-harakatlarini ongli boshqara olishi, talaba va o'quvchi bilan insonparvar munosabat o'rnatishi, kasbiy vaziyatlarda mas'uliyatli tanlov qilishi, noaniqlik sharoitida refleksiv qaror qabul qilishi va muloqotda subyekt-subyekt munosabatini saqlab qolish qobiliyatiga ham bevosita bog'liq. Ayniqsa, chet tilini, xususan ingliz tilini o'qitish jarayoni o'qituvchi shaxsini doimiy ravishda

kommunikativ, emotsional va madaniyatlararo ta'sir maydoniga olib kiradi. Bunday sharoitda o'qituvchi nafaqat til birliklarini tushuntiruvchi mutaxassis, balki o'quvchini fikr bildirishga undaydigan fasilitator, muloqot madaniyatini namoyon qiluvchi namuna, o'quvchining xato qilish huquqini tan oluvchi hamkor va uning o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish masalasi pedagogika nazariyasi, til ta'limi metodikasi, pedagogik psixologiya va gumanistik ta'lim falsafasi kesishgan nuqtada ko'rib chiqilishi lozim.

XX asr pedagogik tafakkurida shaxsning tabiiy rivojlanishiga ishonch, ta'limdagi majburlashni cheklash, individual tanlovga hurmat va demokratik munosabatlarni kuchaytirish g'oyalari bilan ajralib turgan pedagoglardan biri Aleksandr Sazerlend Nildir. Uning Summerhill maktabi tajribasi va shu tajribani umumlashtirgan asarlari, avvalo, ta'lim jarayonida insonning ichki ehtiyojlari va psixologik farovonligini markazga qo'yishi bilan e'tiborlidir. Nilning 1960-yilda nashr etilgan "Summerhill: A Radical Approach to Child Rearing" asari ta'limda erkinlik, o'zini o'zi boshqarish va qo'rquvdan xoli muhit masalalarini keng muhokamaga olib chiqqan manbalardan biri bo'ldi [1]. Keyinchalik Albert Lamb tahririda qayta nashr qilingan "Summerhill School: A New View of Childhood" kitobi ham Nil qarashlarining asosiy mazmunini – bolaning hayotini tashqi bosim bilan boshqarish o'rniga uning ichki faolligi, tanlovi va jamoadagi teng huquqli ishtirokini qo'llab-quvvatlash zaruratini yoritadi [2]. Mazkur qarashlar o'z tarixiy kontekstiga ega bo'lsa-da, ulardagi gumanistik yadro bugungi pedagogik ta'lim uchun ham muhim nazariy savollarni yuzaga chiqaradi: kelajak o'qituvchisi qanday shaxs bo'lishi kerak, uning kasbiy mas'uliyati ichki erkinlik bilan qanday uyg'unlashadi va pedagogik hokimiyat hamkorlikka qanday aylantiriladi?

Nil ta'limotini gumanistik paradigma doirasida talqin qilishda "erkinlik" tushunchasining mazmunini aniqlashtirish alohida ahamiyatga ega. Nil uchun erkinlik tartibsizlik yoki boshqa shaxsning huquqlarini inkor etish bilan aynanlashtirilmaydi; u individning o'z hayoti va faoliyati bo'yicha imkon qadar ongli tanlov qilishi, biroq bu tanlov boshqalarning erkinligi va jamoaviy hayot talablariga zid bo'lmasligi kerakligi bilan tavsiflanadi. Summerhilldagi o'zini o'zi boshqarish va umumiy yig'ilishlarda kattalar hamda bolalarning ovozi tengligi ushbu tamoyilning institutsional ifodasidir. J. Darling Nilning demokratik hokimiyat haqidagi qarashlarini tahlil qilar ekan, Summerhill tajribasida hokimiyatning butunlay yo'q qilinishi emas, balki uning legitimligi va demokratik shakllarini qayta tashkil etish masalasi markaziy o'rinda turishini ko'rsatadi [3]. Bu fikr bo'lajak o'qituvchilar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga tatbiq etilganda, talabaga "xohlaganini qilish" imkonini berish emas, balki tanlov natijasini anglash, qarorni asoslash, guruh manfaatini hisobga olish, professional etikaga rioya qilish va o'z faoliyati uchun javobgarlikni qabul qilish kabi fazilatlarni shakllantirish nazarda tutiladi.

Gumanistik pedagogikaning muhim metodologik xususiyati shundaki, u shaxsni tashqi ta'sirlar orqali "tayyor mahsulot" sifatida shakllantirishdan ko'ra uning ichki rivojlanish resurslarini faollashtirishni maqsad qiladi. Shu jihatdan Nilning qarashlari K. Rogersning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan muayyan mazmuniy mushtaraklikka ega. Rogers ta'limda o'qituvchining asosiy funksiyasini tayyor bilimni majburan singdirish emas, balki mazmunli o'rganish uchun psixologik sharoit yaratish, ishonch, empatik tushunish va samimiylilik orqali o'quvchining o'z tajribasiga tayangan holda rivojlanishiga yordam berish deb

talqin etadi [4]. Bunday yondashuv bo'lajak ingliz tili o'qituvchisidan pedagogik autentiklik, ya'ni o'z rolini sun'iy autoritar niqob bilan emas, professional mas'uliyat va insoniy ochiqlik uyg'unligida namoyon etishni talab qiladi. Til darsida o'quvchining gapirishga jur'at etishi, fikrini erkin ifodalashi, xatodan qo'rqmasligi va muloqotga faol kirishishi ko'p jihatdan o'qituvchining emotsional reaksiyasi, baholash uslubi va muloqotdagi ochiqqligiga bog'liq bo'lgani uchun gumanistik sifatlar metodik kompetensiyaning tashqi bezagi emas, balki uning ichki psixologik sharti hisoblanadi.

Nil ta'limotining zamonaviy talqinida o'zini o'zi boshqarish va ichki motivatsiya masalasini self-determination nazariyasi bilan bog'lash ilmiy jihatdan samarali hisoblanadi. R. Ryan va E. Deci insonning faol, tashabbuskor va ichki jihatdan motivatsiyalangan rivojlanishini avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik kabi asosiy psixologik ehtiyojlarning qondirilishi bilan izohlaydi [5]. Ushbu nazariy model Nilning tarixiy-pedagogik g'oyalarini zamonaviy psixologik terminlarda qayta tushuntirish imkonini beradi. Avtonomiya bo'lajak o'qituvchining o'z kasbiy maqsadlari va usullarini ongli tanlashi, kompetentlik – pedagogik vazifalarni bajarishga qodirligini his etishi va malakasini muntazam rivojlantirishi, aloqadorlik esa talaba, ustoz, tengdosh va kelajakdagi o'quvchilar bilan mazmunli insoniy munosabat o'rnatish ehtiyoji sifatida namoyon bo'ladi. Agar pedagogik ta'lim muhiti faqat nazorat, jazodan qochish va tashqi bahoga qaratilsa, talaba o'z kasbiy rivojlanishini ichki qadriyat sifatida emas, majburiy talablar ketma-ketligi sifatida qabul qilishi mumkin. Gumanistik yondashuv esa tashqi nazoratni butunlay bekor qilish emas, balki uning o'rnini maqsadni anglash, tanlov qilish, o'zini baholash va shaxsiy javobgarlik mexanizmlari bilan muvozanatlashtirishni ko'zda tutadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining shaxsiy sifatleri tushunchasi ko'p komponentli pedagogik fenomen sifatida qaralishi kerak. Uni faqat "yaxshi xulq", muloyimlik yoki umumiy madaniyat bilan cheklash ilmiy jihatdan yetarli emas. Mazkur tushuncha tarkibiga birinchidan, subyektivlik va avtonomlikni ifodalovchi mustaqil qaror qabul qilish, tashabbus ko'rsatish, professional pozitsiyani asoslash kabi sifatlar; ikkinchidan, ijtimoiy-axloqiy mas'uliyatni ifodalovchi vijdonlilik, adolat, va'daga sodiqlik, boshqa shaxsning huquq va qadr-qimmatini e'tirof etish; uchinchidan, refleksiv-metokognitiv sifatlar – o'z kuchli va zaif tomonlarini anglash, dars jarayonini tahlil qilish, xatodan o'rganish, kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilash; to'rtinchidan, kommunikativ-emotsional sifatlar – empatiya, sabr, bag'rikenglik, tinglay bilish, hissiy o'zini boshqarish; beshinchidan, ijodiy-transformativ sifatlar – moslashuvchanlik, yangilikka ochiqlik, muammoni turli nuqtayi nazardan ko'rish va metodik yechimlar yaratish kiritilishi mumkin. Nilning gumanistik tamoyillari aynan shu sifatlarining ichki motivatsiya va shaxsiy tajriba orqali rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik muhitni asoslash uchun nazariy resurs beradi.

O'qituvchining shaxsiy va professional sifatlarini yaxlit ko'rib chiqish zarurati zamonaviy teacher education tadqiqotlarida ham ta'kidlanadi. F. Korthagen "yaxshi o'qituvchi" mohiyatini faqat xulq-atvor texnikalari yoki kompetensiyalar yig'indisiga kamaytirish yetarli emasligini, o'qituvchining identiteti, missiyasi, e'tiqodlari va chuqur shaxsiy sifatleri kasbiy faoliyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi [6]. Ushbu nuqtayi nazar Nilning pedagogik gumanizmi bilan uyg'un holda bo'lajak ingliz tili o'qituvchisini "metodlarni bajaruvchi" emas, balki ongli pedagogik pozitsiyaga ega shaxs sifatida tayyorlash zarurligini kuchaytiradi. Masalan, talaba kommunikativ metodika tamoyillarini nazariy jihatdan yaxshi bilishi mumkin, biroq agar u xatoga nisbatan keskin, o'quvchi tashabbusiga befarq, nazoratga haddan tashqari

moyil yoki o'z fikrini mutlaq haqiqat sifatida taqdim etishga odatlangan bo'lsa, uning metodik bilimlari gumanistik til ta'limini ta'minlamaydi. Shuning uchun pedagogik ta'limda shaxsiy sifatlar maxsus rivojlantiriladigan maqsad sifatida o'quv dasturlariga, amaliyotga, refleksiyaga va baholash tizimiga integratsiyalashishi lozim.

Chet tili ta'limida avtonomiya masalasi alohida nazariy an'anaga ega. D. Little o'quvchi avtonomiyasi o'qituvchi avtonomiyasidan ajralgan holda rivojlanmasligini, o'qituvchining o'zi refleksiv, mas'uliyatli va o'z professional faoliyatini mustaqil boshqarishga qodir bo'lishi zarurligini asoslaydi [7]. Bu g'oya Nilning ta'limdagi teng huquqli muloqot va o'zini boshqarish tamoyillari bilan bevosita rezonans hosil qiladi. Ingliz tili o'qituvchisi o'quvchidan mustaqil fikr, mustaqil o'rganish strategiyasi, tilni tashabbus bilan qo'llash va o'z natijalarini baholashni kutar ekan, u o'zi ham kasbiy avtonomiya namunasini ko'rsatishi kerak. Bunday namuna tayyor metodik ssenariylarga ko'r-ko'rona ergashishdan ko'ra, dars maqsadini kontekstga moslashtirish, o'quvchilarning ehtiyojlarini tinglash, resurslarni tanlash, o'z qarorlarini asoslash, natijalarni tahlil qilish va zarur holatda yondashuvini o'zgartirishda namoyon bo'ladi. Demak, bo'lajak o'qituvchining avtonomligi uning shaxsiy erkinligi bilan birga professional javobgarligini ham kuchaytiruvchi sifat sifatida shakllantirilishi kerak.

P. Benson va J. Huang chet tilini o'rganuvchi shaxsning keyinchalik chet tili o'qituvchisiga aylanish jarayonida avtonomiya qanday o'zgarishini tahlil qilib, o'qituvchining avtonom ta'lim tajribasi uning kelajakdagi pedagogik qarashlari va amaliyotiga ta'sir qilishini ko'rsatadi [8]. Ushbu xulosa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash mazmuni uchun printsiplial ahamiyatga ega: talaba universitetda faqat avtonom ta'lim haqida ma'ruza eshitib qolmasligi, balki o'zi avtonom o'rganish tajribasini boshdan kechirishi lozim. Masalan, topshiriq mavzusini tanlash, individual maqsad belgilash, o'quv resurslarini saralash, loyiha formatini belgilash, o'z ishiga mezon ishlab chiqish, yakunda esa natija va jarayonni refleksiv tahlil qilish talabning shaxsiy javobgarlik tajribasini shakllantiradi. Nil ta'limotining gumanistik qiymati ham aynan tajribaviy xarakterida namoyon bo'ladi: erkinlik nazariy shior sifatida emas, real qaror qabul qilish vaziyatlari orqali o'rganiladi. Shunday qilib, pedagogik ta'limda shaxsiy sifatlarini rivojlantirish nazariy targ'ibot emas, balki tashkil etilgan ta'lim tajribasi bo'lishi zarur.

Boshlang'ich pedagogik tayyorgarlik davrida teacher-learner autonomy masalasini o'rganish ham mazkur mavzuni chuqurlashtiradi. E. Ushioda, R. Smith, S. Mann va P. Brown boshlang'ich til o'qituvchisi ta'limida talabalarning "learning to teach" jarayonida mustaqil rivojlanishini qo'llab-quvvatlash masalasini ko'taradi va formal o'qish davridan tashqarida ham kasbiy o'sishni davom ettirish qobiliyatini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi [9]. Bu yondashuv Nilning o'zini o'zi boshqarish g'oyasi bilan birlashtirilganda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining shaxsiy sifatleri "kurs davomida namoyon bo'ladigan xususiyatlar" emas, balki umrbod professional rivojlanishning ichki regulyatorlari sifatida ko'riladi. Refleksivlik, o'ziga talabchanlik, o'z ta'limi uchun javobgarlik, yangi tajribaga ochiqlik va tashabbuskorlik pedagogik faoliyatning ilk bosqichidayoq mustahkamlanmasa, keyinchalik malaka oshirish jarayoni ko'proq tashqi talabga javob beruvchi formal faoliyatga aylanishi mumkin. Shu sababli gumanistik pedagogik muhit talabani tashqi nazoratdan ichki kasbiy o'zini boshqarishga bosqichma-bosqich olib o'tishi lozim.

Bo'lajak EFL o'qituvchilarining o'z kompetensiyalariga doir qarashlarini o'rgangan K. Irie, S. Ryan va S. Mercer tadqiqoti mazkur muammoning yana bir muhim tomonini ko'rsatadi. Mualliflar ayrim pre-service EFL o'qituvchilari metodik-texnik kompetensiyalarni o'rganish

mumkin deb hisoblagan holda, ilqlik, o'quvchiga yaqin bo'lish, ilhomlantira olish, individual ehtiyojni tushunish kabi interpersonal sifatlarni ko'proq "tabiiy iste'dod" sifatida tasavvur qilishlari mumkinligini aniqlagan va teacher education dasturlarida aynan interpersonal tomonlarni ham maqsadli rivojlantirish zarurligini qayd etgan [10]. Ushbu natija Nilning gumanistik tamoyillarini bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi shaxsiy sifatlarga tatbiq etishning dolzarbligini kuchaytiradi. Empatiya, ochiqlik, tinglay bilish yoki demokratik muloqot qobiliyatini o'zgarmas xarakter xususiyati deb qabul qilish o'rniga, ularni refleksiya, tajriba, teskari aloqa va ongli mashq orqali rivojlantiriladigan kasbiy-shaxsiy kompetensiya sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Ingliz tili darsining kommunikativ tabiati gumanistik shaxsiy sifatlarning funksional qiymatini yanada oshiradi. Til o'rganish jarayonida o'quvchi muntazam ravishda o'zini boshqalarga namoyon etadi: talaffuz qiladi, fikr bildiradi, xato qiladi, notanish vaziyatda gapirishga urinadi, o'z til va madaniy tajribasini boshqa til vositasida qayta ifodalaydi. Shu bois o'qituvchi yaratgan psixologik iqlim o'quvchining lingvistik faolligiga bevosita ta'sir qiladi. Agar o'qituvchi istehzo, doimiy keskin tuzatish, ortiqcha nazorat yoki taqqoslash orqali xavotirni kuchaytirs, kommunikativ topshiriqning metodik jihatdan mukammalligi ham kutilgan natijani bermasligi mumkin. Aksincha, xatoni rivojlanishning tabiiy qismi sifatida qabul qiladigan, o'quvchining fikrini hurmat qiladigan, tinglaydigan va tanlov uchun ma'lum makon qoldiradigan o'qituvchi ingliz tilidan real muloqot vositasi sifatida foydalanishga qulay sharoit yaratadi. Nilning qo'rquvdan xoli muhit haqidagi qarashlari shu nuqtada til o'qitish metodikasi bilan bog'lanadi: shaxsiy erkinlik kommunikativ jasoratning psixologik sharti, mas'uliyat esa muloqotdagi etik chegaralarning kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining bag'rikengligi va madaniyatlararo ochiqligi ham mazkur mavzu doirasida muhim shaxsiy sifaddir. Ingliz tili global kommunikatsiya vositasi sifatida turli madaniy tajribalar, qadriyatlar va identitetlar bilan uchrashuv maydonini yaratadi. O'qituvchi tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, turli dunyoqarashlarni ifodalash vositasi sifatida o'rgatadi. Shu sababli u o'quvchilarning farqli fikri, talaffuzi, madaniy tajribasi yoki muloqot uslubiga nisbatan hurmatli pozitsiyani shakllantirishi kerak. Nilning demokratik tenglik va shaxs qadrini tan olish tamoyillari bu jarayonda pedagogik etik orientir sifatida ishlashi mumkin. Oliy ta'limda debatlar, madaniyatlararo case-study, autentik matnlarni ko'p nuqtayi nazardan tahlil qilish, stereotiplarni refleksiv muhokama qilish va turli rollardan fikr yuritish topshiriqlari orqali talabaning kognitiv moslashuvchanligi hamda empatik qarashini rivojlantirish mumkin. Bu sifat kelajakda inklyuziv va hurmatga asoslangan til sinfini tashkil etish uchun zarur.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining shaxsiy sifatlarni gumanistik asosda rivojlantirish teacher identity, ya'ni kasbiy identitet shakllanishi bilan ham chambarchas bog'liq. Talaba universitetga kirgan paytda o'qituvchilik haqida maktab davridan shakllangan ko'plab yashirin tasavvurlarga ega bo'ladi: "kuchli o'qituvchi doim nazorat qiladi", "intizom sukut bilan o'lchanadi", "xato darhol tuzatilishi kerak", "o'qituvchi barcha savollarga javobni bilishi shart" kabi stereotiplar keyinchalik uning amaliy xulqiga ta'sir qilishi mumkin. Gumanistik pedagogik muhit bu tasavvurlarni avtomatik qabul qilish emas, balki ularni refleksiv tahlil qilish uchun sharoit yaratadi. Nilning autoritar munosabatga tanqidiy qarashi talabaning pedagogik hokimiyat haqidagi shaxsiy qarashlarini qayta ko'rib chiqishga undaydi, Korthagenning yaxlit o'qituvchi konsepsiyasi esa kasbiy identitet va chuqur shaxsiy sifatlarning metodik faoliyat

bilan bog'liqligini tushuntirishga yordam beradi [3; 6]. Shu nuqtayi nazardan "men qanday o'qituvchi bo'lishni istayman?", "o'quvchilar meni nimasi bilan eslab qolishini xohlayman?", "mening darsimda erkinlik va tartib qanday uyg'unlashadi?" kabi savollar professional identitetni ongli qurish vositasiga aylanadi.

Mavzuning ilmiy muammosi shundan iboratki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda kompetensiyaviy natijalar ko'pincha til, metodika va pedagogik texnologiyalar bilan batafsil ifodalanadi, biroq bu kompetensiyalarni insonparvar pedagogik amaliyotga aylantiruvchi shaxsiy sifatlar har doim ham alohida rivojlantirish obyekti sifatida tizimli loyihalanmaydi. Natijada talaba metodik bilimni egallashi mumkin, lekin o'quvchi avtonomiyasini qo'llab-quvvatlash, xatoga konstruktiv munosabat bildirish, pedagogik hokimiyatni demokratik boshqarish, kasbiy qarorini refleksiv asoslash yoki muloqotdagi emotsional bosimni boshqarish bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lmasligi mumkin. Nilning gumanistik ta'limoti aynan shaxs va munosabat masalasini markazga olib chiqishi bilan ushbu bo'shliqni nazariy jihatdan to'ldirishga xizmat qiladi. Bunda uning qarashlari zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan tekshiriladi va pedagogik shart-sharoitlar til o'qituvchisi tayyorlash kontekstiga mos ravishda qayta ishlab chiqiladi.

XULOSA

Aleksandr Nil ta'limotining gumanistik tamoyillarini bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning pedagogik merosidagi eng muhim ilmiy qiymat Summerhillning tashkiliy shakllarini takrorlashda emas, balki shaxsga ishonch, ongli erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, demokratik ishtirok, qo'rquvdan xoli rivojlanish va erkinlikning mas'uliyat bilan uyg'unligi kabi tamoyillarni zamonaviy teacher education mazmuniga moslashtirishdadir. Ushbu tamoyillar bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy faoliyatini faqat metodik texnikalar majmui sifatida emas, balki insoniy munosabatlar, qadriyatlar va ongli kasbiy pozitsiyaga asoslangan faoliyat sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Neill A. S. Summerhill: A Radical Approach to Child Rearing. – New York: Hart Publishing Company, 1960. – XXIV, 392 p.
2. Neill A. S. Summerhill School: A New View of Childhood / ed. by A. Lamb. – New York: St. Martin's Press, 1993. – XXVII, 269 p.
3. Darling J. A. S. Neill on Democratic Authority: A Lesson from Summerhill? // Oxford Review of Education. – 1992. – Vol. 18, No. 1. – P. 45–57. – DOI: 10.1080/0305498920180104.
4. Rogers C. R. Freedom to Learn: A View of What Education Might Become. – Columbus, OH: Charles E. Merrill Publishing Company, 1969. – 358 p.
5. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being // American Psychologist. – 2000. – Vol. 55, No. 1. – P. 68–78. – DOI: 10.1037/0003-066X.55.1.68.
6. Korthagen F. A. J. In Search of the Essence of a Good Teacher: Towards a More Holistic Approach in Teacher Education // Teaching and Teacher Education. – 2004. – Vol. 20, No. 1. – P. 77–97. – DOI: 10.1016/j.tate.2003.10.002.
7. Little D. Learning as Dialogue: The Dependence of Learner Autonomy on Teacher Autonomy // System. – 1995. – Vol. 23, No. 2. – P. 175–181. – DOI: 10.1016/0346-251X(95)00006-6.

8. Benson P., Huang J. Autonomy in the Transition from Foreign Language Learning to Foreign Language Teaching // D.E.L.T.A.: Documentação de Estudos em Linguística Teórica e Aplicada. – 2008. – Vol. 24, Special Issue. – P. 421–439. – DOI: 10.1590/S0102-44502008000300003.
9. Ushioda E., Smith R., Mann S., Brown P. Promoting Teacher–Learner Autonomy through and beyond Initial Language Teacher Education // Language Teaching. – 2011. – Vol. 44, No. 1. – P. 118–121. – DOI: 10.1017/S026144481000039X.
10. Irie K., Ryan S., Mercer S. Using Q Methodology to Investigate Pre-Service EFL Teachers' Mindsets about Teaching Competences // Studies in Second Language Learning and Teaching. – 2018. – Vol. 8, No. 3. – P. 575–598. – DOI: 10.14746/sslt.2018.8.3.3.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.